

Fermer o'z xo'jaligida chorva mollarini boqadi, buning evaziga boqqa muntazam mahalliy o'g'it bilan ta'minlash imkoniyati mavjud. Shu bilan birga fermer ekologik sof mahsulot ishlab chiqarish maqsadida, butkul mineral o'g'itlarni qo'llashdan voz kechgan. Kechpishar navlarni omborxonada saqlash uchun saralash, qutilarga joylashtirishda unga rafiqa va farzandlari yaqindan yordam berishadi.

N.Nazarov o'z faoliyatida yangi bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish, navlarni yangilash, istiqbolli yetishtirish texnologiyalarini amaliyotga joriy qilishga qiziqib, muntazam loyiha doirasida tashkil qilinadigan trening-seminarlarda faol qatnashadi. Loyiha ishtirokchilari bilan hamkorlikda O'zbekistonda yaratilgan olmaning yangi, istiqbolli Farangiz, Malika va Bolajon navlaridan ko'paytirish maqsadida qalamchalarni payvandlab ko'chat yetishtirmoqda.

Loyiha doirasida tayyorlangan olma ko'chatlarini mahalladosh qo'shnilari, qarindoshlari shuningdek, yaqin do'stlari orasida tarqatib, ularni ushbu navlarni yetishtirishlariga ko'mak bermoqda.



Bog' qator orasida anor ko'chatlarini yetishtirish jarayoni



Fermerning loyiha doirasida olmaning yangi navlarini ko'paytirish maqsadida ilmiy xodimlardan qabul qilib olgan qalamchalari

Ushbu buklet Bioversity/UNEP-GEF «O'zbekistonning qishloq xo'jalik ishlab chiqarish tizimlarida ekosistemalarni boshqarish va qo'llab-quvvatlash funksiyalarini yaxshilash uchun qishloq xo'jalik ekinlari bioxilma-xilligini saqlash va undan barqaror foydalanish» loyihasi doirasida tayyorlandi va nashr etildi.

Taklif va mulohazalar uchun kontaktlar:

Akademik Mahmud Mirzayev nomidagi bog'dorchilik, uzumchilik va vinochilik ilmiy-tadqiqot instituti (M.Mirzayev nom. BUvaV ITI)

Manzil: 111116, Toshkent viloyati, Toshkent tumani, Guliston qishlog'i, Chimkent yo'li ko'chasi
Tel.: (+99871) 220-24-42, (+99871) 220-26-82
Faks: (+99871) 220-26-48
El. pochta: buviti@mail.ru

Rasmda: yuqorida – Mirzayev Saydulla (Termiz tumani Soliobod qishlog'i) olmaning mahalliy Oq olma navi bog'ida, pastda – Nazarov Nabi (Sariosiyo tumani Dashnobod qishlog'i) olmaning mahalliy Mayskiy navi bog'ida.

Tuzuvchilar: Ye.A. Doroxova, Sh.M. Axmedov, N.L. Djalilov, G.M. Karaxodjayeva
A.Q. Qayimov umumiy tahriri ostida.



Akademik M. Mirzayev nomidagi bog'dorchilik, uzumchilik va vinochilik ilmiy-tadqiqot instituti

SURXONDARYO VILOYATIDA OLMANING MAHALLIY NAVLARINI YETISHTIRUVCHI FERMERLAR



Toshkent 2020

Mirzayev Saydulla – Surxondaryo viloyati-ning janubiy mintaqasi Termiz tumanidagi Soliobod qishlog'ida istiqomat qiladi. Bog'dorchilik ilmini u o'z otasi va bobosidan olib hozirgi kunda tumandagi yetakchi bog'bon-dehqonlardan biridir.

S.Mirzayev olmaning mahalliy navlaridan Mayskiy, Oq olma va Qimizak navlarini yetishtirib kelmoqda. Barcha navlar yovvoyi olmaning urug'ko'chatlariga payvandlangan, bu issiq va quruq ob-havo sharoitida yuqori va sifatli mahsulot yetishtirishning garovi hisoblanadi.



Soliobodlik dehqon Mirzayev Saydullaning olma bog'ida mutaxassislar bilan suhbat

Fermer olma bog'ida erta bahorda kasallangan, shikastlangan novda va shoxlarni qirqib olib tashlaydi, shuningdek, qarigan, unumsiz novdalarni butaydi. Buning natijasida har yili bir tupdan o'rtacha 150-200 kg gacha meva yetishtiradi.

Bog'da ko'pchilik daraxtlar ertaki bo'lganligi uchun erta mahsulotni bozorga olib chiqish imkoniyati mavjud. Shu bilan birga Termiz tumanining o'ziga xos iqlimi sharoitida olmaning barcha navlari respublikaning boshqa mintaqalariga nisbatan erta pishib



Mahalliy olma bog'ida qator oralaridan unumli foydalanish

yetiladi. Bu mevalarni yuqori bahoda sotilishini ta'minlaydi.

Fermer bog' qator oralaridan unumli foydalanish maqsadida, turli qishloq xo'jaligi ekinlari – beda, don-dukakli ekinlar, ertaki sabzavot va kartoshka ekish bilan qo'shimcha daromad oladi.

S.Mirzaev tomonidan uzoq yillardan beri yetishtirib kelinayotgan mahalliy olma navlaridan Oq olma navi o'zining bozorbopligi, erta muddatda pishishi, turli kasallik va



Olmaning mahalliy Oq olma navi

zararkunandalarga bardoshligi bilan ajralib turadi. Fermer muntazam o'z mahalladoshlariga olmaning mahalliy navlari qalamchalarini payvandlash uchun yetkazib beradi. Buning bilan u mahalliy navlarni saqlab qolinishiga katta hissa qo'shmoqda.

Nazarov Nabi – Surxondaryo viloyatining tog'oldi – tog'li mintaqasida (Sariosiyo tumani, Dashnobod qishlog'i) olmaning bir qator navlarini parvarishlab kelmoqda. Uning bog'ida olmaning mahalliy navlaridan Mayskiy, Jonaqi, Qizil olma tarqalgan bo'lsa, introduksiya qilingan navlardan esa Golden Delishes ekilgan.



Fermer Nazarov Nabining olma tuplari atrofida kungaboqar o'stirib, bog' qator orasiga beda joylashtirilganligi

Dashnobod qishlog'i mevali ekinlarni yetishtirishga qulay mintaqa bo'lib, Nazarov Nabining olmazorlari tog' yon bag'irlari bo'ylab joylashgan, yosh olmazorda fermer qator orasidan unumli foydalanish maqsadida qishloqda keng tarqalgan subtropik meva o'simligi – anorni ko'chatlarini ekib yetishtiradi. Buning natijasida bir maydondan ham bog' sifatida ham ko'chatxona sifatida foydalaniladi.